
“SizdanTelegram” kanaliga joylangan “Qaddi dol” bo‘lgan simyog‘ochlar” nomli xabarga MUNOSABAT

Joriy yilning 2-dekabr kuni “SizdanTelegram” kanaliga “Qaddi dol” bo‘lgan simyog‘ochlar” nomli xabar joylandi.

Unda aytilishicha, “Farg‘ona viloyati Qo‘shtepa tumani “Baland masjid” mahalla fuqarolar yig‘ini “Barkamollik” ko‘chasidagi simyog‘ochlar egilib qulay deb turibdi. Bu masalada tuman elektr korxonasiga bir necha marotaba murojaat qilishimizga qaramay, chora ko‘rilmayapti”.

Ushbu murojaat bo‘yicha tuman elektr ta‘minoti korxonasi ishchi guruhi tomonidan joyiga borib o‘rganildi va PS Satkak 110/35/10 kVli F Sarmozor 10 kVli XUning 93-sonli tayanchi to‘g‘rilandi, simlari tortilib normal holatga keltirildi.





Qo'shtepa tumani elektr ta'minoti korxonasi

2019-12-03 17:20:08